# XALQ DEPUTATLARI RISHTON TUMAN KENGASHI
# Q A R O R I

2023 - yil 11 - oktabr VI-60-100-11-158-K/23 Rishton tumani hokimligi

**2023 yil III-choragida jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltirilgan mablag‘lar hamda 2023 yil 2-mavsum yakunlari bo‘yicha shakllantirilgan tadbirlarni tanlab olish va mazkur tadbirlarga mablag‘lar ajratish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 28 avgustdagi “Byudjet ma’lumotlarining ochiqligini va byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3917-sonli hamda 2021 yil 13 apreldagi “Byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5072-sonli Qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2021 yil 22 apreldagi KQ-213-IV-sonli Qarori, shu bo‘yicha xalq deputatlari Rishton tuman Kengashining 2022 yil 7 fevraldagi VI-34-14-11-158-K/22 sonli qarori bilan tasdiqlangan Namunaviy Nizomi asosida tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi tomonidan xalq deputatlari tuman Kengashiga taqdim etilgan xujjatlarni muhokamasidan va deputatlar tomonidan bildirilgan takliflardan kelib chiqib, O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunini 6 va 24 moddalariga muvofiq xalq deputatlari Rishton tuman Kengashi

**QAROR QILADI:**

1. Xalq deputatlari Rishton tuman Kengashining 2022 yil 7 fevraldagi “Rishton tumanida maxalliy byudjet mablag‘lari sarflanishida jamoatchilik ishtirokini ta’minlash to‘g‘risida”gi VI-34-14-11-158-K/22-sonli qarori bilan tasdiqlangan namunaviy Nizomning 27-bandiga asosan 2023 yilda jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltirilgan

mablag‘lar hamda 2023 yil 2-mavsum yakunlari bo‘yicha shakllantirilgan tadbirlarni tanlab olish va mazkur tadbirlarga mablag‘lar ajratish yuzasidan tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi mudiri I.Djurayevning hisoboti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Mazkur qaror bilan quyidagilar:

-2023 yil III-choragida “Tashabbusli byudjetlashtirish” jarayoni natijalari bo‘yicha ma’lumotlar 1 va 2 ilovaga muvofiq;

-2023 yil III-choragida “Fuqarolar tashabbusi” jamg‘armasi mablag‘larining shakllanishi to‘g‘risidagi ma’lumot 3-ilovaga muvofiq;

-2023 yil III-choragida “Fuqarolar tashabbusi” jamg‘armasidan jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan (g‘olib deb topilgan) tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo‘naltirilgan mablag‘lar 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Ishchi guruh xulosalariga asosan, Xalq deputatlari tuman Kengashining qarori bilan tasdiqlangan Nizom talablaridan kelib chiqib, ENG KO‘P ovoz olgan hamda “Ochiq byudjet” axborot portalida avtomatik tarzda g‘olib sifatida tanlab olingan 6 ta takliflar “g‘olib” deb topilsin va “Tashabbusli byudjet” loyihasining 2023 yil 2-mavsum natijalariga asosan jamoatchilik fikri asosida shakllangan tadbirlarni moliyalashtirish bo‘yicha “Manzilli ro‘yhat” 5-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4.Tasdiqlangan “Manzilli ro‘yxat” asosida:

- Tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi (I.Djurayev) tanlab olingan tadbirlarni moliyalashtirilishini ta’minlash maqsadida, buyurtmachi tashkilotlariga tegishli mablag‘ manbaasi bo‘yicha (4017) “Fuqarolar tashabusi jamg‘armasi” maxsus hisob raqamlari ochilishini;

- Tuman hokimligi hisobxonasi (F.Aminov) Jamg‘arma mablag‘lari hisobidan tegishli buyurtmachi tashkilotlarga mablag‘lar yo‘naltirilishini;

-Buyurtmachi tashkilotlar ajratilgan mablag‘larni loyiha-smeta xujjatlari asosida belgilangan tartibda maqsadli ishlatilishi va amalga oshirilgan ishlar bo‘yicha Halq deputatlari tuman Kengashi va tuman hokimligi huzuridagi Ishchi guruhga ma’lumot kiritib borilishini ta’minlasin.

5. Tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi (I.Djurayev), tuman hokimligi axborot xizmati (A.Dexqonov) Tashabbusli byudjetlashtirish natijalari bo‘yicha

ma’lumotlarni keltirilgan ilovalarga muvofiq shakllarda “Ochiq byudjet” axborot portali hamda hokimlikning rasmiy veb-saytlariga joylashtirish va har chorak yakunlariga koʻra, keyingi chorak birinchi oyining 25-sanasiga qadar joylashtirib borish vazifalari yuklatilsin.

6. Mazkur qaror ijrosini ta’minlash tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambagʻallikni qisqartirish masalalari boʻyicha birinchi oʻrinbosari A.Mustafaqulov, nazorati xalq deputatlari tuman Kengashining “Mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari boʻyicha” doimiy komissiyasi (D.Raxmonqulov) ga yuklatilsin.

**Сессия раиси** **Akbaraliyevich T. B.**

Xalq deputatlari Rishton tuman
Kengashining
2023-yil 11-oktabrdagi
VI-60-100-11-158-K/23-son qaroriga
1-ilova

## Tashabbusli byudjetlashtirish natijalari bo‘yicha

## MA’LUMOT

**Rishton tumani** **01.10.2023 y**

| T/r | Ko‘rsatkich nomi | Summa (ming so‘m) |
|---|---|---|
| 1 | Yil boshiga qoldiq | **1 133 266,4** |
| 2 | Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasiga o‘tkazilgan mablag‘lar* | 28 283 736,6 |
| 3 | Jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan (g‘olib deb topilgan) tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo‘naltirilgan mablag‘lar** | 20 947 000,0 |
| 3.1. | Tadbirlarni amalga oshirayotgan pudratchi tashkilotlarga bajarilgan ishlar uchun to‘langan mablag‘lar | 15 836 000,0 |
| 3.2. | Tadbirlarni moliyalashtirishga ajratilgan, biroq pudratchi tashkilotlarga to‘lab berilmagan qoldiq mablag‘lar | 0,0 |
| 4 | Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasidagi qoldiq mablag‘lar | 8 758 734,0 |

Xalq deputatlari Rishton tuman
Kengashining
2023-yil 11-oktabrdagi
VI-60-100-11-158-K/23-son qaroriga
2-ilova

# Tashabbusli byudjetlashtirish natijalari bo‘yicha
# MA’LUMOT

**Rishton tumani** **01.10.2023 y**

**ming.so‘m**

| **T/r** | **Bajarilgan tadbirlar nomi** | **Moliyalashtirilgan takliflar soni** | **ko‘rsatkichlar** | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | | **o‘lchov birligi** | **miqdori** | **sarflangan mablag‘lar** |
| 1 | Hududiy ichki yo‘llar | 4 | umumiy uzunligi | 10600 | 4 318 000 |
| 2 | Umumta’lim maktablarini ta’mirlash va jihozlash | 9 | soni | 9 | 6 722 000 |
| 3 | Maktabgacha ta’lim muassasalarini ta’mirlash va jihozlash | 1 | soni | 1 | 1 010 000 |
| 4 | Sog‘liqni saqlash muassasalarini ta’mirlash va jihozlash | 2 | soni | 2 | 1 015 000 |
| 5 | Boshqa ijtimoiy soha muassasalarini ta’mirlash va jihozlash | 1 | soni | 1 | 1 019 000 |
| 6 | Ichimlik suvi ta’minotini yaxshilash | | umumiy uzunligi | | |
| 7 | Ko‘cha chiroqlarini o‘rnatish | 3 | chiroqlar soni | 3 | 1 752 000 |
| 8 | Obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish | | tadbirlar soni | | |
| 9 | Boshqa tadbirlar | | soni | | |
| **jami** | | **20** | **X** | **X** | **15 836 000** |

Xalq deputatlari Rishton tuman Kengashining
2023-yil 11-oktabrdagi
VI-60-100-11-158-K/23-son qaroriga
3-ilova

**Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi mablag‘larini shakllantirilishi yuzasidan**
MA’LUMOT

**Rishton tumani** **01.10.2023 y**

**ming.so‘m**

| T/r | Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi mablag‘larini shakllantirish manbalari | | Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasiga yo‘naltirilishi lozim bo‘lgan mablag‘lar | | | | Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasiga haqiqatda o‘tkazilgan mablag‘lar | Farqi | Izoh |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | 1-chorak | 2-chorak | 3-chorak | 4-chorak | | | |
| 1 | Tuman (shahar) byudjetining tasdiqlangan umumiy xarajatlarining 5 foiz qismi miqdorida ajratiladigan mablag‘lar | | 6 524 391,0 | 6 524 391,0 | | | 13 048 782,0 | 0,0 | |
| 2 | Tuman (shahar) byudjetining qo‘shimcha manbalarining 30 foizi miqdorida ajratiladigan mablag‘lar | | | 243 000,0 | 0,0 | 0,0 | 15 234 954,6 | 14 991 954,6 | |
| 2.1. | Shu jumladan | erkin qoldiq mablag‘lari | 287 000,0 | | | | 287 000,0 | 0,0 | |
| 2.2. | | daromadlarning hisobot choraklari yakunlari bo‘yicha aniqlanadigan prognozdan oshirib bajarilgan qismi | | | | | | 0,0 | |
| 2.3. | | davlat daromadiga o‘tkazilgan mol-mulkni realizatsiya qilishdan tushgan tushumlar | | | | | | 0,0 | |
| 2.4. | | elektron savdo maydonchasida yer uchastkalariga bo‘lgan huquqlarni sotishdan tushgan mablag‘lar | | | | | | 0,0 | |
| 2.5. | | O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-117 qaroriga asosan Respublika byudjetidan ajratilgan mablag‘lar | | | | | 14 947 954,6 | 14 947 954,6 | |
| **3** | **Jami ajratiladigan mablag‘lar** | | **6 524 391,0** | **6 767 391,0** | **0,0** | **0,0** | **28 283 736,6** | **14 991 954,6** | |

Xalq deputatlari Rishton tuman
Kengashining
2023-yil 11-oktabrdagi
VI-60-100-11-158-K/23-son qaroriga
4-ilova

**Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasidan jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan (g‘olib deb topilgan) tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo‘naltirilgan mablag‘lar yuzasidan**

MA’LUMOT

**Rishton tumani** **01.10.2023 y**

**ming.so‘m**

| T/r | Tadbirning xos raqami (ID) | Jami to‘plangan ovozlar soni | shundan | | | Tadbirning qisqacha mazmuni (sohasi) | Tadbirning moliyalashtirilishi (ming so‘m) | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | onlayn ovozlar | oflayn ovozlar | SMS orqali | | Tadbirni moliyalashtirish uchun ochilgan hisobvaraq | Tadbirning fuqaro tomonidan kiritilgan dastlabki qiymati | Tadbirni amalga oshirish qiymati* | Ajratilgan mablag‘lar | Bajarilgan ishlar uchun to‘lab berilgan mablag‘lar | Iqtisod qilinib, jamg‘armaga qaytarilgan mablag‘ | Qoldiq mablag‘lar |
| 1 | 00119582011 | 8123 | | | 8123 | TERAKTAGI KO'CHASINING 3 490 METR ICHKI YO'LINI ASTFALLASHTIRISH UCHUN. KO'CHALAR SHAG'ALLASHTIRIB ASTFAL QILISHGA TAYYORLAB QO'YILGAN AJRATILGAN PUL FAQAT ASTFAL YO'TQIZISH UCHUN | 401722860302247045204118002 | 1 200 000 | | 1 138 000 | 1 138 000 | | |
| 2 | 00128605011 | 5663 | | | 5663 | Rishton tuman Ko‘p tarmoqli markaziy poliklinika (KTMP) binosi eskirgan bo‘lib, xozirgi kunda ta’mirtalab ahvolda. Markaziy poliklinika butun tuman aholisiga xizmat ko‘rsatishi sababli poliklinika binosini ta’mirlash | 401722860302247072110054001 | 1 200 000 | | 1 131 000 | 792 000 | | |
| 3 | 0014420011 | 6320 | | | 6320 | Istiqbol MFYda Mustaqqillik ko‘chasi 400 metr, Urikzor ko‘chasi 700 metr, Istiqbol ko‘chasi 300 metr, Yangi hayot ko‘chasi 550 metr, Ibn sino ko‘chasi 200 metr, Ulug‘nor ko‘chasi 300 metr, Furqat ko‘chasi 200 metr jami 2650 metr ichki yullarni asfalt qoplamasini yotqizish. | 401722860302247045204118003 | 1 200 000 | | 956 000 | 956 000 | | |
| 4 | 00135740011 | 6081 | | | 6081 | Rishton tumani Qoshqayron M.F.Y.da joylashgan 11-umumta’lim maktabi sinf xonalari yotishmovchiligi sababli 4-ta sinf xonasi va 250 o‘rinli faollar zali kurib berish xamda jixozlarini o‘rnatish. Qolgan qismiga maktabni joriy ta’mirlash ishlarini bajarish. | 401722860302247092100072001 | 1 200 000 | | 1 074 000 | 405 000 | | |
| 5 | 00114182011 | 6051 | | | 6051 | Rishton tumanidagi 39 - umumiy o'rta ta'lim maktabi 220 o'ringa mo'ljallangan. Hozrgi kunda 2 navbatlilik asosida faoliyat yuritadi. O'quvchilarni yuksak darajada ta'lim tarbiya olishlari, ijodiy qobilyatlarini namoyon qilishlarini rivojlantirishga shart-sharoit yaratib berish maqsadida muassasa uchun faollar zali zarur. 120 o'rinli Faollarn zali tashkil etilsa maktab moddiy texnika bazasi sezilarli darajada boyiydi va o'quvchilarning ijodiy qobilyatlarini rivojlantirish uchun sharoit yaratiladi. | 401722860302247092100072002 | 1 200 000 | | 1 034 000 | 740 000 | | |
| 6 | 00136103011 | 5902 | | | 5902 | Rishton tumani 1-son Kasb hunar maktabi (Sobiq Sanoat kolleji) 2000-yilda qurilgan bo`lib, xozirgi kunda binoning deraza va eshik-romlari yaroqsiz holatga kelib qolgan | 401722860302247092901079001 | 1 200 000 | | 1 105 000 | 1 019 000 | | |
| 7 | 00130283011 | 2560 | | | 2560 | T. Axmedov mfy xududidagi Navbahor, Oltin kuz,Oltinvodiy, Paxtakor, Ziyokor ko‘chalariga 670 dona beton sim yog‘och o‘rnatish 7400 metr kabelni elektor tarmoq tortish va 4 dona 250 klavatli transformator o‘rnatish. | 401722860302247049803098001 | 1 200 000 | | 1 073 000 | 1 019 000 | | |
| 8 | 00125432011 | 5476 | | | 5476 | Rishton tumani To'raobod MFYda joylashgan 7-sonli umumtalim maktabi o'quvchilariga qulaylik yaratish maqsadida maktabni kapital tamirlash uchun mablag' ajratish kerak | 401722860302247092100072003 | 1 200 000 | | 1 105 000 | 1 001 000 | | |
| 9 | 00118073011 | 2016 | | | 2016 | Farg‘ona viloyati Rishton tumanidagi 1-umumiy o‘rta ta’lim maktabi ma’naviyat zali va maktab oshxonasini ta’mirlash. | 401722860302247092100072004 | 1 200 000 | | 1 106 000 | 748 000 | | |
| 10 | 00132383011 | 2350 | | | 2350 | Anxor bo`yi MFY ning Anxor bo`yi ko`chasiga 1000 mert, Baxtiyor ko`chasiga 600 mert, Yoshlik ko`chasiga 700, Madaniyat ko`chasi 350 jami 2650 metr asfaltlashtirish | 401722860302247045204118004 | 1 200 000 | | 1 103 000 | 1 103 000 | | |
| 11 | 0018476011 | 4189 | | | 4189 | Rishton tumanidagi 8-umumiy o'rta ta'lim maktabining 4000 metr kvadrat maydoniga asfalt qoplamasini yotqizish uchun. | 401722860302247092100072005 | 1 200 000 | | 1 106 000 | 1 104 000 | | |
| 12 | 00115363011 | 3218 | | | 3218 | Rishton tuman Zohidon MFY Mezon, Ilg‘or, Yangi avlod, O‘zbek mahalla, Farg‘ona, Bo‘stonobod va Zohidon ko‘chalariga 250 dona simyog‘och o‘rnatish va 12 km yopiq elektr tarmog‘i tortish hamda 5 dona 250 kVt bo‘lgan transformator o‘rnatish lozim | 401722860302247049803098002 | 1 200 000 | | 1 083 000 | 366 000 | | |
| 13 | 00122496011 | 2571 | | | 2571 | Bog‘iston QVP binosi xozirgi kunda ta’mirtalab xolatga kelib qolganligi sababli, binoni zamonaviy qilib, mukammal ta’mirlash zarur. | 401722860302247072130054001 | 1 200 000 | | 1 083 000 | 223 000 | | |
| 14 | 00147084011 | 2608 | | | 2608 | Dasht Pandigon MFY xududidagi 32- sonli DMTT kapital ta’mirlash va devorlarini yangi qurish | 401722860302247091100251001 | 1 200 000 | | 1 108 000 | 1 010 000 | | |
| 15 | 00127933011 | 2186 | | | 2186 | Dasht Tegirmon MFYdagi 48 umumta’lim maktabiga sport zali kurish | 401722860302247092100072006 | 1 200 000 | | 1 095 000 | 398 000 | | |
| 16 | 0010788011 | 2265 | | | 2265 | Rishton HTB ga qarashli 49-maktab hovlisini asfaltlash. | 401722860302247092100072007 | 300 000 | | 285 000 | 285 000 | | |
| 17 | 0011391011 | 4008 | | | 4008 | Rishton tumani XTB ga qarashli 5-maktab ma’nan eskirgan eshik va derazalarini zamonaviy mdf eshik va alyumin profilli deraza romlarga almashtirish | 401722860302247092100072008 | 1 200 000 | | 1 040 000 | 1 038 000 | | |
| 18 | 00150222011 | 2238 | | | 2238 | Rishton tumani Chek Jalayer MFY Xurmozor ko‘chasini 400 metr, Shirinsuv ko‘chasini 600 metr, Guliston ko‘chasini 350 metr, mevazor ko‘chasini 400 metr, Yuksalish ko‘chasini 600 metr, Yoshlik ko‘chasini 300 qismini asfaltlashtirish. | 401722860302247045204118005 | 1 200 000 | | 1 121 000 | 1 121 000 | | |
| 19 | 0014379011 | 2700 | | | 2700 | Mexnatobod MFY 42-umumiy o‘rta ta’lim maktab binosini va oshxonasini mukammal ta’mirlash | 401722860302247092100072009 | 1 200 000 | | 1 106 000 | 1 003 000 | | |
| 20 | 00118902011 | 2034 | | | 2034 | So‘xobod MFYdagi 6 km yangi elektr tarmog‘i tortish (6000 metr yopiq kabel, 180 dona beton tayanch ustunlari, 3 ta 250kVt transformator, 230 dona ko‘cha chiroqlari va ko‘cha chiroqlari uchun 8000 metr yopiq kabel) | 401722860302247049803098003 | 1 200 000 | | 1 095 000 | 367 000 | | |
| **Jami:** | | | | | | | | **23 100 000** | **-** | **20 947 000** | **15 836 000** | **-** | **-** |

Xalq deputatlari Rishton tuman Kengashining
2023-yil 11-oktabrdagi
VI-60-100-11-158-K/23-son qaroriga
5-ilova

**Rishton tumani bo‘yicha "Tashabbusli byudjet" loyihasining 2023 yil 2 mavsumi natijalariga asosan jamoatchlik fikri asosida shakllangan tadbirlarnri moliyalashtirish bo‘yicha**
**MANZILLI RO‘YXAT**

**ming.so‘m**

| **№** | **G‘olib taklif ma’lumotlari** | | | | | | **Amalga oshirishning aniqlangan qiymati** | **Xaqiqatda ajratilgan mablag‘** | **Buyurtmachi etib belgilangan tashkilot** |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | **Taklif ID raqami** | **Taklif turkumi** | **Qisqacha mazmuni** | **Tadbirlarning manzili (Joylashgan MFY nomi)** | **Amalga oshiriladigan tadbir turi** | **To‘plagan ovozlari soni** | | | |
| | x | 6 | **Rishton tumani jami** | **x** | **x** | **32 088** | **7 860 000,0** | **7 860 000,0** | **x** |
| 1 | 031277661011 | Ichki yo‘llarni (piyodalar yo‘lakchasi, yo‘l o‘tkazgichlar) ta’mirlash bilan bog‘liq tadbirlar | Xurramobod MFY Ma’rifat ko‘chasida maktabga qatnovchi bolalar uchun piyodalar yo‘lakchasi qurish va Xurramobod MFY ichki yo‘llarini ta’mirlash. | Xurramobod | Qurilish-ta’mirlash | 6347 | 1 320 000,0 | 1 320 000,0 | Farg‘ona mintaqaviy yo‘llarga buyurtmachi xizmati DUK |
| 2 | 031276716011 | Sog‘liqni saqlash muassasalarini ta’mirlash va moddiy-texnika bazasini rivojlantirish tadbirlari | Rishton tuman markaziy shifoxonasi qabul diagnostika bo‘limiga UZI 4D, FGDS, Gematologik analizator, IFA analizator va boshqa zaruriy apparatlarni sotib olish (ro‘yxat ilova qilinadi) | Farovonlik | Jihozlash | 4989 | 1 320 000,0 | 1 320 000,0 | Rishton tuman tibbiyot birlashmasi |
| 3 | 031260925011 | Ichki yo‘llarni (piyodalar yo‘lakchasi, yo‘l o‘tkazgichlar) ta’mirlash bilan bog‘liq tadbirlar | Xojiqishloq MFYdagi Sobir Raximov ko‘chasinining 3 km. qismini asfaltlashtirish. | Xoji-qishloq | Qurilish-ta’mirlash | 4957 | 1 260 000,0 | 1 260 000,0 | Farg‘ona mintaqaviy yo‘llarga buyurtmachi xizmati DUK |
| 4 | 031267922011 | Ichki yo‘llarni (piyodalar yo‘lakchasi, yo‘l o‘tkazgichlar) ta’mirlash bilan bog‘liq tadbirlar | Oktomir MFY  xududida kuydagi kuchalarni asfaltlashtirish Dustlik kuchasi 435 metir, Ittifok kuchasi 400 metr, Gulzor kuchasi 500 metir, Xunarmandlar kuchasi 500 metr, Obixaet kuchasi 500 metir, Bogiston-Oktomir tutashuvchi 850 metir maktabga kelish va ketish uchun piyodalar yulakchasini shakllantirish | Oq-tomir | Qurilish-ta’mirlash | 5333 | 1 320 000,0 | 1 320 000,0 | Farg‘ona mintaqaviy yo‘llarga buyurtmachi xizmati DUK |
| 5 | 031264546011 | Ichki yo‘llarni (piyodalar yo‘lakchasi, yo‘l o‘tkazgichlar) ta’mirlash bilan bog‘liq tadbirlar | Rishton tumani, Mevazor MFYdagi Baxor1 va Milliy tiklanish ko‘chasidagi mavjud 3 km masofadagi shag‘allashtirilgan ichki yo‘llarni asfaltlashtirish | Mevazor | Qurilish-ta’mirlash | 4999 | 1 320 000,0 | 1 320 000,0 | Farg‘ona mintaqaviy yo‘llarga buyurtmachi xizmati DUK |
| 6 | 031285515011 | Ichki yo‘llarni (piyodalar yo‘lakchasi, yo‘l o‘tkazgichlar) ta’mirlash bilan bog‘liq tadbirlar | Rishton tumani Voxim MFY xududidagi jami 2700 metr jumladan, Toshkent-2 ko‘chasini 800 metr, Anxor-bo‘yi ko‘chasini 1000 metr, Qo‘rg‘oncha-1 ko‘chasini 600 metr va Qo‘rg‘oncha-2 ko‘chasini 300 metr qismini asfaltlashtirish. | Voxim | Qurilish-ta’mirlash | 5463 | 1 320 000,0 | 1 320 000,0 | Farg‘ona mintaqaviy yo‘llarga buyurtmachi xizmati DUK |